ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODIDA MILLIY O`ZLIK VA MA`RIFAT G`OYALARINING AKS ETISHI

Feruza Rahimova Suyundiq qizi
O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti
3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23168585

Annotatsiya

Ushbu maqolada O`zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, jadid va milliy romanchilik asoschilaridan biri bo`lib, qatag`on qurboni sifatida xalqimiz orasida mashhur bo`lgan Abdulla Qodiriy haqida so`z yuritiladi. Abdulla Qodiriy o`zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan va romanchilikning rivojiga salmoqli hissa qo`shgan adibalardan biridir. Hozirgi kunda ham Abdulla Qodiriynin «O`tgan kular», «Mehrobdan Chayon» xalq orasida sevib mutolaa qilinadigan asarlardan biri bo`lib, uning asarlarida o`zbek milliy qadriyatlari yoritilgandir. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy hayoti va ijod yo`li, necha yillar o`tganiga qaramasdan hanuz Otabek va Kumush, Anvar va Ra`noning nomlari xalq orasida sevib tilga olinishi va adibning qatag`on yilllarini ijodi va hayot tarziga tasiri haqida yoritiladi.

Kalit so`zlar:

Abdulla Qodiriy, romanchilik, milliy o`zlik, ma`rifat, jadidchilik,o`zbek adabiyoti, «O`tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», milliy g`urur, vatan tuyg`usi

Kirish:

Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi haqida

Taniqli adib va jadid ,shuningdek xalq orasida Qodiriy va Julqinboy taxalluslari bilan mashhur Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog`bon oilasida tug`ilgan. Otasi Qodirbobo 1820-yilda tavallud topgan bo`lib,rus bosqini paytida Toshkent mudofaasida jonbozlik ko`rsatgan va u xon va beklar qo`lida sarbozlik ham qilgan. Otasining boshdan kechirganlari Abdulla Qodiriyning asarlariga ham qisman turtki bo`lgan ,desak, ham mubolag`a bo`lmaydi,ya`ni o`sha davrdagi Turkistonning ahvoli uni ijodga ham undagan. Abdulla Qodoriyning ta`lim olishiga kelsak, u 1904-1906 yillar oralig`ida rus-tuzem maktabida, keyin esa 1916-1917 yillar oralig`ida esa «Abulqosim shayx madrasasi»da ta`lim olgan. Keyinchalik esa 1925-1926 yillar oralig`ida Moskvadagi adabiyot kursida ham tahsil ko`rdi.Yoshligidan adabiyotga muhabbati kuchli bo`lib, arab, fors va rus tillarini o`rgangan va jahon adabiyotini ham sevib mutolaa qilgan. Shuningdek, Habibulla Qodiriy «Otam haqida» (1974) asari Abdulla Qodiriyning o`g`li tomonidan yozilgan Qodiriy hayoti va ijod yo`li haqida ma`lumotberuvchi asardir. Habibullaning yozishicha, Qodiriy mashhurlik va kibrdan qochgan va farzandlariga ham doim odam o`zini boshqalardan baland olmasligi kerakligi va kibr odamni halok qilishi va agar biror yutuqqa erishsangiz, buni o`zingizdan emas, Xudodan va xalqning sizga bo`lgan ishonchidan deb bilinglar deb aytganlarini so`zlaydi.Ko`rinib turbdiki, adib farzandalarini ham insoniy tuyg`ular bilan tarbiyalab, ularni xalqni sevishga va xalq dardini o`zing dardidek qarashga undagan.

Abdulla Qodiriyning ijodida milliy o`zlik va ma`rifat g`oyalari

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Abdulla Qodiriyning ijodi o`quvchlarni tarix va undagi davrlar haqida chuqur mulohaza qilishga undaydi.Adibning «O`tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» ramonlarida o`zbek xalqining o`tmishi, urf-odatlari va milliy qadriyatlari va aynan bir davrdagi insonlar hayoti to`laqonli yoritib berilgandir. Abdulla Qodiriy o`z davrining qahramonlaridan biridir. Sababi u asarlari va ijod na`munalari bilan xalqqa milliy g`urur, milliy g`oya tushunchalarini yanada singdirdi va vatan tuyg`usi degan tushunchani uyg`otdi.Abdulla Qodiriy jamiyat va xalqni jaholatdan qutqaradigan yagon narsa ilm ekanligini ta`kidlab o`tgan va buni hayotda ta`tbiq qilishga astoydil harakat qilgan.Eng muhim jihatlardan biri shuki, uning asarlaridagi fikrlar va g`oyalar hali ham o`z qadrini yo`qotmagan , ya`ni hali ham xalq orasida muhokamalarga sabab bo`lib kelmoqda.Matyoq Qo`shjanovning «Abdulla Qodiriyning tasvirlash sa`nati»(1996) maqolasida adibning obraz va xarakter yaratish,syujet va kompozitsiya makammalligi, tarixiy va badiiy haqiqat uyg`unligi va til va milliy ruh haqida yoritib bergan. Matyoqub Qo`shjanovning fikri bo`yicha Abdulla Qodiriy bir yoqlama emas, balki jonli, ziddiyatli va real hayotiy xarakterlarga egaligini alohida ta`kidlaydi. Shuningdek, Qo`shjanov romanlardagi voqealar rivoji, konfliktlarning keskinligi va yechimi mantiqiy izchillikka ega bo`lib,asar qurilishidagi sirsaqlik(syujet dinamikasini saqlash) san`ati yuksak darajada ekani ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, Qodiriy tarixiy davr ruhini, o`sha muhitdagi ijtimoiy zidddiyatlarni aniq tasvirlagani, tarixiy shaxslar va voqealar badiiy to`qima bilan mukammal qo`shib yubora olgani ham Qo`shjanov tamonidan yoritib berilgan.Abdulla Qodiriy o`z mahorati bilan jonli dialoglar va o`xshatishlarni va milliy o`zlikni yoritib bergan.

Abdulla Qodiriyning «O`tgan kunlari» romani haqida

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub O`tgan kunlar romani O`zbek adabiyotining eng durdona asarlaridan biri bo`lib,bu roman 1920- yilning boshida yozilgan bo`lib, o`zbek adabiyotidagi ilk roman hisoblanadi. Asar 1922-yilda «Inqilob» jurnalida chop etilgan va 1926-yilda esa alohida kitob sifatida nashr etilgandir.Romanning asosiy g`oyasiga keladigan bo`lsak, bu asar faqatgin sevgi- muhabbat mavzusini yoritibgiba qolmay, balki o`sha davrda yani Xonliklar davri(Qo`qon xonligi) muommalari, milliy fojialar va ichki nizolarni yoritib bergan. Muallif taxt uchun kurash va jaholatni insonlar taqdirida aks ettirib bergan.Asarning bosh qahramonlariga kelsa, Otabek Yusufbek Hojining o`g`li bo`lib, Toshkentlik savdogar, ma`rifatparvar va vatanparvar yigit. Otabek yurt rivoji va adolat o`rnatilgan jamiyat qurish maqsadida yashovchi inson obrazida tasvirlangan. Kumushbibi esa Marg`ilonning eng go`zal va oqila qizlaridan biri bo`lib, Abdulla Qodiriy Kumushbibi obrazi orqali o`zbek qizlaring oqilaligi va iffatini aks ettirgan.Zaynab esa Otabekning ikkinchi xotini bo`lib, hasad va ko`rolmaslik tufayli qotillikka qo`l urgan ayol sifatida tasvirlangan va bu obraz orqali muallif o`sha davrdagi ayollarning kundoshlik hayotini ham ifodalagan.Yusufbek Hoji esa xalq uchun kurashib, xalq uchun fidokorana xizmat qilgan bir obrazda yoritilgan. Abdulla Qodiriy Homid obrazi orqali nafsiga qul va jamiyatning obro`siga putur yetkazuvchi shaxslar har bir davrda borligini ochiq-oydin ko`rsatib bergan. Bu asardan ilhomlanib, Umarali Normatov o`zining mashhur maqolasi «O`tgan kunlar» hayrati ni 1994-yil yozda chop ettirgan. Ushbu maqolada ham Turkiston hududida taxt uchun kurashlar ravon qilib yoritilgan.

Normatovning fikriga ko`ra «O`tgan kunlar» romanidagi Aytishuv va qahramonlar tilidan aytilgan nutqiy monolog va dialoglar mahoratini alohida yoritib bergan.

Normatovning fikriga ko`ra Otabek va Kumushbibining ilk uchrashuvi jahon adabiyotidagi eng go`zal va mukammal dialoglardan biri deb hisoblanadi.Kumushning hayajon va hayratda yoshga to`la Siz o`shamu? Savoli va Otabekning Men-o`sha deya bergan qisqa, ammo ko`plab hissoyotlarga va ma`noga to`la gaplari shunchaki so`z almashish emas.Normatovning qarashlariga ko`ra,bu ikki pokiza

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qalbning, taqdirning bir-biri bilan pinhona bog`lanishi va ruhlar aytishuvidir deya tasvirlaydi. Qodiriy bu qisqagina jumlasi orqali o`zining naqadar mahoratli ekanligi va cheksiz hayrat va ma`no bera olganligi tahsinga sazovordir. Normatov shuningdek Yusufbek hojining dor ostidagi faryodini ham mahorat bilan yozilganligini aytib o`tgan. Normatovning yondashuviga ko`ra,bu monolog shunchaki obrazning gapi emas, balki Millatning o`z-o`zini sud qilishi va ayblashidir deb aytib o`tgan va Hojining Yurtni qo`ldan boy berdik deb qilgan xitobi Abdulla Qodiriyning 1920-yildagi xalqning erkinligi va mustaqilligini yo`qotganligini achchiq faryod bilan Yusufbekning so`zlarida aks ettirib bergan.

Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan Chayon» asari haqida

Abdulla Qodiriyning oltin qalamiga mansub ushbu roman O`tgan kunlardan keyin yozilgan 1928-yil yozilgan va 1929-yil nashr etilgan ikkinchi romani hisoblanadi. Adibning «O`tgan kunlar»romani fojia bilan tugagan sevgi-muhabbat va xalq orasidagi parokandalikni haqida yozilgan bo`lsa, «Mehrobdan Chayon» esa ilm va jaholat, din niqobi ostida o`z mafkuraviy g`oyalarini oldinga surgan shaxslar hamda shaxs erkinligi mavzusini ilgari surgan asar hisoblanadi.Bu asarni eshitgan yoki o`qigan insonlarda savol tug`ilishi tabiiy -nega «Mehrobdan Chayon»? Mehrob -bu masjidning eng muqaddas va namoz o`qiladigna joyi hisoblanadi. Chayon esa zaharli, xiyonotkor maxluqdir. Abdulla Qodiriy bu asari orqali muqaddas dargohlarda o`tirib olib, marifat tarqatuvchi inson niqobida xalqni chaquvchi va xiyonatkor insonlarni aks ettirgan. Taniqli qodiriyshunos Bahodir Karimov o`zining 2006-yilda chop etilgan Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin nomli taqdiqotiga ko`ra Abdulla Qodiriy bu romani orqali adabiyotshunoslikda uzoq yillar davomida hukm surgan sinfiy va mafkuraviy yondashuvlarni tub mohiyatini ochib bergan. Karimovning nazariyasiga ko`ra, Qodiriy qahramonlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar prizmasida qayta kashf etgan va Olim,xususan, Solih mahdum kabi obrazlarni davr fojiasi konteksilarida tahlil qilib, qodiriyshunoslikni yangi bosqichga olib chiqqan deb ta`kidlab o`tgan.

Abdulla Qodiriyning Qatag`on qilinishi

Abdulla Qodiriy o`zining o`tkir syujetli asarlari va xalq dardini ko`rsatib bergan asarlari tufayli hukumatning doimiy nazoaratida bo`lgan. Adib ziyolilar orasida eng ayanchli fojiani boshdan kechirgan va sovet tuzumi tomonidan shafqatsizlarcha o`ldirilgan.Yozuvchining qatag`on qilinishi asoson ikki bosqichda amalga oshirilgan:

1.Birinchi hibs (1926)

Abdulla Qodiriy o`zining «Yig`indi gaplar» hajviy maqolasiini ilk bor «Mushtum» jurnalida chop ettirgan va bu maqolasi tufayli 1926-yil 8-martda o`sha davr hukumatini obro`sizlantirilishda ayblanib, 2 yil qamoq jazosi beriladi. Ammo, ziyolilarning yordami tufayli bir necha oydan so`ng ozod etiladi.

2. Mudhish yakun:Ikkinchi hibs va qatl(1937-1938)

Stalin qatag`on davri yani tarixda eng qonli davr nomi bilan mashhur 1937-yil 31-dekabrda o`z xonadonida norin to`g`rab o`tirgan paytda hibsga olinadi .Qodiriy tuhmat va qiynoqlar bilan 9 oy sovet zindonida qiynoqlar ostida tergov qilinadi. Qodiriyga «askiinqilobiy millatchilik» tashkiloti a`zosi, panturkist va «xalq dushmani» degan soxta ayblovlar qo`yiladi. Qanchalik qiynoqlar va ayblovlarga qaramasdan Qodiriy do`stlarini sotmaydi.

Qatl etilishi:1938-yil 4-oktabrda SSSR Oliy Sudi Harbiy Kengashining sayyor yig`ilishi hukmi bilan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat va Cho`lpon kabi o`zbek adabiyotining chinorlari qulatiladi va ularning jasadalari o`sha kechada yashirincha Toshkentdagi hozirgi «Shahidlar xiyoboni»ga dafn etiladi.Sovet mustabid tuzumining amalga oshirgan qatag`on siyosati nafaqat uning shoh asaralarini

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yo`qotish va shuningdek, xalqning xotirasidan Abdulla Qodiriydek nomini o`chirishga ham harakat qilishgan edi. Abdulla Qodiriyga nisbatan qatag`on siyosati uning «Amir Umarxonning kanizi» deb nomlangan remaining yo`q qilinishiga ham sabab bo`lgan .Muallif bu asar ustidan ancha mehnat qilib, bu asar «O`tgan kunlar» va «Mehrobdan Chayon» romanlarining qisman davomi edi desak ham mubolag`a bo`lmaydi.Adibning «Dahshat» deb nomlangan romani Qo`qon xonligidagi hayot va o`sha davrdagi ayollarnig fojiali hayoti haqida yozilgan bo`lib, butunlay kuydirib yo`q qilingan.Abdulla Qodiriy shuningdek tarixiy ilmiy manbalar asosida tayyorlangan ilmiy hujjatlari va o`zbek tili lug`ati va jahon adabiyotidan qilgan tarjimalari ham yo`q qilingan.1938-yilda «xalq dushmani» deb ayblov qo`yilgandan so`ng, sovet hukumati uning nomini toptab, xalq ongidan uning yodini o`chirishga harakat qilgan. Adibning «O`tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlari barcha kutubxonalardan yig`ilib, hammasi yo`q qilingan.Eng achinarli holatlardan yana biri shundaki, adibning asarlarini shaxsiy javonlarda saqlash va ularni o`qish qatiyan man qilingan va buning natijasida juda ko`plab insonlar kitoblarni o`iganligi va yashirincha saqlaganligi uchun surgun ham qilinganlar. Ammo, millat fidoyilari va qorong`ulikdan chiqishga uringanlar adibning kitoblarini yerga ko`mib bo`lsa ham saqlab qolishgan.Abdulla Qodiriy asos solgan o`zbek realistik romanchiligi salkam 20 yilga to`xtab qolgan. 1938-yildan to adibning nomi oqlanguncha maktab darsliklaridan uning nomi o`chirilib, u yaratgan obrazlar(Otabek, Kumush, Anvar, Ra`no) go`yoki feodal tuzumni sog`ingan burjua unsurlari sifatida qaralgan.Qatag`on siyosatiga qaramasdan, Abdulla Qodiriy asaralari xalq orasida yashab qoldi va xalq u kabi o`zbek jadidlarining nomini unutmadi.

Tarixiy haqiqat va oqlanish:

Eng achinarlisi shundaki, Sovet humati Qodiriyning o`lganligi haqida sir yashirib, uni surgun qilingan deb yaqinalariga xabr yetkaziladi. Stalinnning vafotidan so`ng shaxsga sig`inish qoralana boshladi va 1930-yillardagi qatag`on qurbonlarining ishlari qayta ko`rib chiqildi. Natijada, 1956-yil SSSrI Oliy sudi Harbiy kollegiyasi tomonidan Abdulla Qodiriyga qo`yilgan ayblovlar asossiz deb topilib, adibning nomi oqlandi.Haqiqat qaror topgandan so`ng, adibning O`tgan kunlar v aMehtobdan chayon asarlari yana nashr ettirilishga ruxsat berilib chop etila boshladi. Mustaqillik yillarida ham adibning nomini abadiylshtirish bo`yicha bir necha ishlar amalga oshirildi. Masalan: 1991-yil Qodiriyning vafotidan keyin Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti berildi. 1994-yilda esa Mustaqillik ordeni bilan ham taqdirlandi.Abdulla Qodiriyning nomini abadiylashtirish maqsadida Toshkentdagi bir necht ijod maktablariga uning nomi berildi va uning nomidagi istirohat bog`i va metro bekat ham tashkillashtirildi.

Qodiriy merosining bugungi kunda ahamiyati

Abdulla Qodiriy romanchilik janrini cho`qqiga olib chiqqan vatan fidoyilaridan bo`lib, xalq qalbida abadiy yashaydi.O`zbek adabiyotining yirik namoyondalari ham Qodiriyning nomini ulug`lab, uning merosini davom ettirmoqda.Oybek o`zining «Mukammal asarlar to`plami».20 jildlik(1979)asarida ham Qodiriyning nomini tilga olib o`tgan. Oybeking yozishicha, Abdulla Qodiriy turmushni badiiy ko`rsatishda tez o`sadi. Nasrchilikda uning ustaligi mukammaalashadi.. O`tgan kunlar romanida yozuvchi til ustida katta mahorat ko`ratadi. Romanning tili haqiqatdan boy, bo`yoqli,soda,ifoda kuchi zo`r, ommaga anglashilarlik bir tildir. O`zbek adabiyoti tilining shakllanishida bu asarning roli, shubhasiz kattaligni tasvirlab, bu asar milliyligimizning ajralmas qismi ekanligini aytib ham o`tgandir.Muxtor Avezovning yozishicha, Biz Qozoq yozuvchilari, romanchililikni Abdulla Qodiriydan o`rganganmiz. «O`tgan kunlar» nafaqat o`zbek xalqining, balki butun markaziy Osiyo xalqlaring faxridir deb bu asar nafaqat millatimizning balki qardosh xalqlarning ham chuqur joy egallaganligini ifodalaydi. Shuningdek Sadriddin Ayniy ham quyidagi fikralrni aytib

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

o`tgan:Qodiriyning til boyligi va asarlaridagi hayotiylikni yuqori baholab, uni yangi davr Sharq adabiyotining eng yorqin yulduzlaridan biri deb hisoblagan va bu iliq fikrlari bilan Ayniy uning nomi abadiy yashashishligini ham inobatga olib o`tgan.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy o`zbek romanchiligiing asoschisi bo`lib, xalq orasida ham jadid sifatida millatga nisbatan sevgi-muhabbat uygo`tgan shaxsdir. Abdulla Qodiriyning ijodi bilan o`zbek adabiyoti dunyoga tanilmoqda, ko`plab dunyo millatlari Otabek va Kumushbibilarning sevgisini havasu hayrat bilan o`qimoqda. Bu o`zbek elining fidoyi farzandi ko`z yumganiga necha yillar o`tgan bo`lsada, uning nomi hali hamon xalq yuragida yashamoqda. Abdulla Qodiriydek jadidalar yoqqan chiroq hali hamon nur taratib, xalqni va millatni ezgulik va vatabparvarlikka boshlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy, H. (1974) Otam haqida Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.
2. Qo`shjonov. M(1996) O`zbekning o`zligi:Adabiy-tanqidiy maqolalar va esselar.-Toshkent:Ma`naviyat,1999.-208.b
3. Noramtov.U (1994) O`tgan kunlar hayrati.Toshkent :G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2011.-260 b.
4. Karimov.B (2006) Abdulla Qodiriy:tanqid,tahlil va talqin
5. Oybek (1979) Mukammal asarlar to`plami.20 jildlik.T.14: Adabiyot-tanqidiy maqolalar.-Toshkent:Fan,1979.-B.120-125
6. Avezov.M.Bizning. Bizning Qodiriy /Marakiz Osiyo adabiy aloqalari to`plami.-Toshkent : Adabiyot vas an`at nashriyoti,1985.-B.45-48.
7. Ayniy. S. Asarlar .8jildlik.Jild 4:Tanlangan adabiyot-tanqidiy maqolalar.-Toshkent:Davlat badiiy adabiyot nashriyoti,1960.-B.54.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.